SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 1
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

RAQAMLI TA'LIM VOSITASIDAN FOYDALANGAN HOLDA O'QUVCHILARDA DO'STLIK VA HAMKORLIKDAGI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

Rajabova Xurshida Hakimovna

Qashqadaryo VPMM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'quvchilarga axborot kommunikatsiyalari orqali do'stlik va hamkorlikni rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, axborot manbalaridan samarali foydalanish, tanqidiy fikrlash va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, maktab ta'limi tizimi misolida axborot kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik va innovatsion texnologiyalarning amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar

Hamkorlikdagi ta'lim, raqamli savodxonlik,mediasavodxonlik, o'quvchi va o'qituvchi hamkorligi, ta'lim texnologiyalari, axborot madaniyati, sun'iy intellekt, baholash mezonlari.

KIRISH

Hozirgi katta o'zgarishlar davrida ta'lim tarbiya oldidagi juda muhim vazifalar qo'yilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarning ma'naviy axloqiy yetukligini oshirish, o'zlikni anglashga qaratilgan madaniy merosimiz bilan tanishtirish muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf "O'qish'' darsliklari tahlili shuni ko'rsatadiki do'stlik va o'rtoqlikni tarbiyalash nihoyatda dolzarb masaladir, darsliklarda bu muammo bo'yicha bevosita bilimlar berilgan. Bu bilimlar esa o'quvchilarda do'stlik, o'toqlik, hamjihatlik, mehribonlik kani insoniy fazlatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish esa boshlang'ish sinf o'qituvchilari zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Hamkorlik konsepsiyasining asosiy maqsadi har bir bolaning hayotda o'z o'rnini topishga, baxti uchun zamin yaratishga, mas'uliyatli, insonparvar bo'lishiga qaratilgan. Hamkorlik pedagogikasi prinsiplari asosida ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatni tashkil etish ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Shu bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya jarayonining sifati quyidagilar bilan belgilanadi: o'qituvchilarning

zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar integratsiyasi asosida o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish; o‘quvchilarda zarur bilimlar va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy yondashuvlar, tamoyillar, metod, shakl va vositalarning samarali joriy etilishi; o‘quvchilar ta’lim-tarbiya jarayonining hamkorlik pedagogikasi tamoyillari asosida tashkil etilishi; ta’lim jarayonining o‘qituvchi shaxsi, uning shaxsiy va pedagogik ehtiyojlari atrofida tashkil etilishi, pedagogik faoliyatning daxlsizligi; o‘quvchilarning davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasini tizimli baholash, ular bilimidagi bo‘shliqlar va kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga oid chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, ya’ni o‘quvchilarda zamonaviy talablar darajasida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ulardan hayotiy vaziyatlarda samarali foydalana olish ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘p jihatdan ta’lim muassasalarida yaratilgan sharoitlardan foydalanib, barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etishga bog‘liq.

Ilmiy bilimlarning istalgan tarmog‘ining rivojlanishi o‘tmishning shu sohadagi merosi bilan qay darajada boyitilganligiga ko‘p jixatdan bog‘liqdir. Bu haqiqa pedagogika,tarbiya uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgda talim tarbiya tizimi oldiga bola shaxsni barkamol kamol toptirish vazifasi qo‘yilgan ekan bola shaxsning odamlar bilan bo‘ladigan aloqalari do‘stlik, o‘rtoqlik, hamkorlik, hamdardlik, mehr oqibat, insonparvarlik, hurmat kabi munosabatga asoslanishiga e’tibor berish lozim. Shuning uchun bola shaxsda bu fazilatga ilk bolalik davridanoq, maktablarda esa boshlang‘ich sinflardan boshlaboq asos solinishi muhimdir. Do‘stlik, o‘rtoqlikni tarbiyalash muammosi axloqiy tarbiya shaxsning turli xil munosabatlari o‘z ifodasini topadi. Bu munosabatlar shaxsning mehnatga, jamiyatga, hayotga, qarindosh urug‘, tengdoshlarga bo‘lgan axloqiy munosabatlarida o‘z aksini topadi va odamning ma’naviy dunyosini ifodalaydi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli transformatsiya jarayonlari bugungi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Endilikda talabalarning bilim darajasini belgilashda ularning nafaqat faktik ma’lumotlarni egallashi, balki axborotni izlash, tahlil qilish, saralash va undan to‘g‘ri foydalanish qobiliyati – ya’ni axborot kompetentligining mavjudligi asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu kompetentlik talabaning o‘z mustaqil fikrini shakllantirishi, yangilikka intilishi, global axborot oqimida yo‘lini topa olishi va eng muhimi, zamonaviy kasbiy muhitda samarali faoliyat yuritishi uchun muhim shartdir.

Bugun dunyo miqyosida ta’lim jarayonini raqamlashtirish, ochiq ta’lim platformalari va sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, axborot madaniyatini yuksaltirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham bu yo‘nalishda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishning samarali omillari va uni baholash mezonlari hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Ushbu maqolada axborot kompetentligini rivojlantiruvchi ichki va tashqi omillar, pedagogik yondashuvlar, shuningdek, bu kompetentlik darajasini

aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy mezonlar tahlil etiladi. Tezis zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining shaxsiy va kasbiy taraqqiyotida axborot kompetentligining tutgan o‘rni va ahamiyatini yoritib berishga qaratilgan. Axborot kompetentligini rivojlantirish bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarining eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Bu kompetentlik o‘quvchining zamonaviy axborot muhiti bilan samarali ishlash, mustaqil axborot izlash, uni tahlil qilish, baholash va qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Axborot kompetentligining shakllanishi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ular pedagogik, texnologik va psixologik jihatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Axborot kompetentligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

-axborotni izlash kompetensiyasi

– kerakli ma’lumotni aniqlash, axborot manbalarini tanlay olish;

-axborotni tahlil qilish va qayta ishlash kompetensiyasi

– axborot ishonchliligini baholash, uni mavzuga moslashtirish;

-axborotdan foydalanish kompetensiyasi

– amaliy topshiriqlarni bajarishda, loyiha va taqdimotlar tayyorlashda axborotni to‘g‘ri qo‘llash;

-axborot madaniyati

– axborot xavfsizligiga rioya qilish, mualliflik huquqlarini tushunish va hurmat qilish.

Ta’lim sohasida raqamli ta’lim texnologiyalar tushunchasi keng ma’noda qo‘llanilmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta’lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta’lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg’ulotlarini sifatli o‘tilishini ta’minlaydi. Bugungi ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishini isbotlandi.

Raqamli ta’limga o‘tishning afzalliklari to‘g’risida fikr yuritadigan bo‘lsak, ularga quyidagilarni kiritish o‘rinlidir:

- darsliklar elektron holatda ekranlarga ko‘chadi;

- o‘quvchilar istalgan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi;

- o‘quvchilar mutaxassis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi;

- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;

- ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi;

- vaqt va mablag’ sarfini keskin kamaytiradi;

- “raqamli dunyo”da yo‘qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo‘ladi. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ishlovchi bir necha platformalar qo‘llanilib kelinmoqda.

Hamkorlik asosida ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shartsharoitlarini nazariy asoslash, tashkiliy-didaktik jihatlarini o‘rganish va baholash borasida quyidagi vazifalar o‘z yechimini topishi kerak: hamkorlik pedagogikasini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish; hamkorlik pedagogikasining konseptual g‘oyalari, prinsiplari, metod, shakl va vositalarini tahlil qilish; ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida ta’lim-tarbiya sifatini oshirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida ta’lim-tarbiya sifatini rivojlantirish jarayonini pedagogik modellashtirish; ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida ta’lim-

tarbiya sifatini oshirishda pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar imkoniyatlarini integratsiyalash; ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida ta’lim-tarbiya sifatini oshirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish; ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagoglari faoliyatini rag‘batlantirish tizimini joriy etish, hamkorlik asosida ta’lim-tarbiya sifatini rivojlantirish asoslari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

So‘nggi yillarda pedagogik jamoatchilik orasida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish vazifasini ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligini ifodalovchi qarashlar shakllandi. Bu esa ta’lim tizimining davlat organlari bilan ijtimoiy tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik asosida boshqarilishini anglatadi. Mazkur hamkorlik ijtimoiy tashkilotlarga davlat organlari bilan birgalikda ta’lim muassasalari faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bunday imkoniyat ta’lim loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalari uchun ajratilayotgan budjet taqsimoti, ularning strategiyasini belgilash va umumiy ta’lim jarayoniga nisbatan ijtimoiy ta’sirlarning yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘quvchilarda axborot kompetentligini shakllantirishga doir ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu masala nafaqat ta’lim jarayonining texnologik jihatlari, balki shaxsiy rivojlanish, kognitiv yondashuvlar va zamonaviy kompetensiyalar nazariyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Xususan, A. V. Hutorskoyning kompetensiyaviy yondashuvga oid ishlarida axborot bilan ishlash kompetensiyasi umumta’limiy kompetensiyalarning eng muhimlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Unga ko‘ra, zamonaviy shaxs o‘z hayot faoliyatida axborotga ishlov bera olish, uni tahlil qilgan holda qaror qabul qilish darajasiga ega bo‘lishi kerak. V. I. Soldatkina va N. G. Seleznevlarning tadqiqotlarida axborot kompetentligining strukturamodulli modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, bu modelda axborot qidiruvi, tanlovi, tahlili va bahosi alohida bosqichlar sifatida ko‘rsatilgan. Bu esa talabalarda kompetensiyani bosqichma- bosqich shakllantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni ifodalaydi.

O‘zbekistonlik olimlardan I. Yo‘ldoshev, D. Qodirov va M. Sattorovlarning raqamli ta’lim, axborot texnologiyalari va kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy ishlari bu yo‘nalishning milliy xususiyatlari va mavjud imkoniyatlarini tahlil qiladi. Xususan, D. Qodirovning “Axborot madaniyatini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni”nomli tezissida oliy ta’lim muassasalarida raqamli vositalardan to‘g‘ri foydalanish orqali talabalarning axborotga nisbatan mas’uliyatli munosabatini shakllantirish zarurligi ta’kidlanadi.

Natijalar.Zamonaviy dunyoda axborotga ega bo‘lish emas, balki uni qanday topish, tahlil qilish va to‘g‘ri ishlata olish – shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatning mezoniga aylanmoqda. Shu bois, ta’lim tizimi oldida turuvchi eng muhim vazifalardan biri – talabalarda axborot kompetentligini samarali shakllantirishdir. Ushbu kompetensiya – bu faqat texnik ko‘nikmalar emas, balki tanqidiy fikrlash, axloqiy mas’uliyat, axborotga nisbatan madaniyatli yondashuvni ham o‘z ichiga oluvchi murakkab psixopedagogik holatdir. Amaliy kuzatuvlar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab talabalar bugungi axborot oqimida yo‘lini topishda qiynalmoqda. Raqamli resurslar ko‘paygani sari axborotni saralash, haqiqiy va soxta ma’lumotni ajratish, ma’lumotdan maqsadli foydalanish zaruriyati kuchaymoqda. Bu holat, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarini

yangi yondashuvlarni izlashga undamoqda. “Media va axborot savodxonligi” tushunchasi XXI asrdao‘zini o’rab to‘rgan borliqni tushunishi uchun insonga zarur bo‘lgan turfa xil ko’nikmalarto‘plamini anglatadi. Media va axborot savodxonligi media xamda kutubxonalar, arxivlar va Internet kabi boshqaaxborot yetkazuvchilarining shaxsiy xayotimiz va demokratik jamiyat xayotidagi roli vavazifalari bilan uzviy bog‘liqdir. U insonning kommunikatsiya va o‘z fikrini erkinbayonqilish, g‘oyalar va axborotni izlash, qabul qilish, ular bilan almashinish borasidagi xuquqlariniamalga oshirishga ko’maklashadi.

MUHOKAMA

O‘qituvchilar tomonidan mediata’lim o‘z faoliyatida foydalanish uchun kashf qilinayotgan yondashuvlarning turli-tumanligi bir qator afzalliklarga ega. O‘qituvchilar tanishtirayotgan media turlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, media ta’limshunchalik sermazmunva chuqurroq bo‘lib boradi. Bugungi kunda pedagoglar duch kelayotgan eng katta vazifa - bu bolalar va yoshlarni axborotdengizida o‘z yo‘lini topishga o‘rgatishdr. Ammo, media va axborot savodxonliginishakllantirish boshqa xar qanday ta’lim turidan farq qilmaydi: buning zamirida o‘kuvchilarbilan ishlash yotadi. O‘qituvchi yoshlar media madaniyatni chuqur bilishi shart emas, uning texnikasi bo’yichadaxo bo‘lishi xam kerak emas, ammo u tarmok odob-axdoqiga tegishli masalalar borasidao‘zxayotiy tajribasiga tayangan xolda, maslahat berishga qodir bo‘lishi shart.

XULOSA

Xulosa shunday ekan, bugungi ta’lim axborot tizimi rivojlantirishga bir yoqlama emas, balki kompleks, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bilan qarashni talab qilmoqda. Bu yo‘lda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi,o‘quvchi va o‘quvchi do‘stligi ilmiy-tadqiqotga asoslangan yondashuvlar, raqamli savodxonlikni yuksaltirish vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi va o‘quvchilarga yaratilayotgan imkoniyatlardan kelib chiqib, texnik moslamalar va internetga kirish imkoniyati taqdim etilar ekan, mediadan xavfsiz va to’g‘ri foydalanish bo‘yicha qo‘llanma ham berilishi kerak.

O‘quvchilar bilan doimiy ishlarni tashkil etish ularning muammo va takliflarini tinglash yoshlar o‘rtasida kitobxonlik va san’atga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish o‘quvchilar bilan ochiq osmon ostida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jumladan tabiatshunoslik, tabiat qo‘yniga guruh guruh bo‘lib ishlash ko‘plab ijobiy natijalarga erishish uchun xizmat qiladi. Do‘stlar bir- biriga hech qachon xiyonat qilmasliklari, bir-birini doimo qo‘llab quvvatlashi va o‘gir kunida doim yonida bo‘lishlari kerakligini anglash. Do‘stlik vafosi bilan go‘zalligini uqtirish, yillar o‘tkanda ham ularni do‘stlik rishtalari uzilmasligi kerakligini tushuntirish. Do‘stlik va hamkorlik shirin suxanlikdan boshlanadi va xushmoumalalik, ochiq ko‘ngillik kabi xislatlarni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1.Berdiyeva.G “O‘quvchilarda shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari” Xalq ta’limi T-1998

2.Ibragimova.R “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari’’ T-2005

3.Davletshin.M T.Do‘stmuhammedova “Yosh davrlari va pedagogik-psixologiya T2004

4.Baratov.Sh “O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari” T-o‘qituvchi

5.Imomova.M “Bolalarni ma’vaviy axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar” T-1995

6.Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностноориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.

7.Солдаткина В.И., Селезнева Н.Г. Информационная компетентность студентов: структура, развитие, диагностика. – Москва: Академический проект, 2015. – 214 с.

8.European Commission. Digital Competence Framework for Citizens (DigComp 2.1). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. https://joint-researchcentre.ec.europa.eu

9.UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

10.Qodirov D. Axborot madaniyatini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni

11. Komilov, J., Isaeva, G., Jonzokova, S., Nosirova, D., & Suleymanova, R. (2021). Innovativeapproaches of psychological training of young sportsmen to the competitions. IlkogretimOnline, 20(3).